



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA GENDER YONDASHUVNI JORIY ETISH: ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA TA'LIM MAZMUNINING ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI

Muminova Zulfiya Asqarbek qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tyutor

Qayumov Asqarbek Vahobovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish masalalari, ilg'or xorijiy tajribalar hamda ta'lim mazmunining ilmiy-pedagogik jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda maktabgacha ta'lim muassasalarida gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan pedagogik strategiyalar, metodlar hamda rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganildi. Tadqiqot tahlili natijalari asosida gender yondashuvni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: gender yondashuv, maktabgacha ta'lim, gender tengligi, pedagogik innovatsiya, xorijiy tajriba, ta'lim mazmuni.

ВНЕДРЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В СИСТЕМУ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАУЧНО- ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Муминова Зульфия Аскарбек кизи

Джизакский государственный педагогический университет, тьютор

Каюмов Аскарбек Вахобович

Джизакский государственный педагогический университет, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье рассматривается внедрение гендерного подхода в систему дошкольного образования, анализируется передовой зарубежный опыт и научно-педагогические аспекты содержания образования. В ходе исследования были изучены педагогические стратегии и методы, направленные на обеспечение гендерного равенства в дошкольных образовательных учреждениях, а также опыт развитых стран в данной области. На основе результатов анализа были разработаны предложения и рекомендации по интеграции гендерного подхода в содержание образования.

Ключевые слова: гендерный подход, дошкольное образование, гендерное равенство, педагогические инновации, международный опыт, содержание образования.

THE INTRODUCTION OF A GENDER APPROACH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM: ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE AND SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL ANALYSIS OF EDUCATIONAL CONTENT

Muminova Zulfiya Asqarbek qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Tutor

Qayumov Asqarbek Vahobovich

Jizzakh State Pedagogical University, Senior Lecturer

Abstract

This paper analyzes issues related to the introduction of gender-sensitive approaches into preschool education systems, including advanced foreign experiences and scientific-pedagogical aspects of educational content. It examines pedagogical strategies and methods to ensure gender equality in pre-school educational institutions, as well as experiences from developed countries in this field. Based on these findings, proposals and recommendations are made for incorporating gender sensitivity into educational content.

Keywords: gender approach, preschool education, gender equality, pedagogical innovations, foreign experience, educational content.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi shaxsning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu bosqichda bolalarda tenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy adolat kabi qadriyatlarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda gender tenglik tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini yaratish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mashhur davlat arbobi va inson huquqlari himoyachisi Nelson Mandela ta'kidlaganidek, "... ta'lim - dunyoni o'zgartirish uchun eng kuchli quroldir".[2] Mazkur fikr ta'limning jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ta'minlashdagi o'rni ni yaqqol ifodalaydi.

Gender tenglik tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish aynan shu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, gender tengligi bugungi kunda xalqaro miqyosda barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida gender tengligi alohida strategik yo'nalish sifatida belgilangan.[3] Bu esa ta'lim tizimida gender yondashuvni rivojlantirishning dolzarbligini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida ham gender tengligini ta'minlash davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada "Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir"-deb, ta'kidlagan edi. Shuningdek, davlatimiz rahbari ta'lim tizimining ahamiyatini alohida qayd etib, "Yangi O'zbekistonni barpo etishda eng katta e'tibor ta'lim va tarbiyaga qaratilishi kerak. Chunki kelajak aynan bugungi yoshlarning bilim va tarbiyasiga bog'liq" [1] ekanligiga alohida to'xtalib o'tgan edi. Mazkur fikrlar ta'lim tizimida gender tenglik tamoyillarini rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan ham muhim ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida gender yondashuvni joriy etish bolalarda tenglik, o'zaro hurmat va hamkorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarda gender stereotiplari aynan maktabgacha yosh davrida shakllana boshlaydi. Shu sababli ta'lim mazmunini gender tenglik tamoyillari asosida tashkil etish bolalarning erkin rivojlanishi va teng imkoniyatlar asosida kamol topishiga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ta'lim mazmunining ilmiy-pedagogik asoslarini tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish masalasi so'nggi yillarda pedagogika, psixologiya va sotsiologiya sohalarida faol o'rganilayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Gender tengligi va genderga sezgir ta'lim muhitini shakllantirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Gender pedagogikasi nazariy asoslarini ishlab chiqishda amerikalik olim Sandra Bem muhim ilmiy hissa qo'shgan. U o'zining "The Lenses of Gender" nomli asarida jamiyatda mavjud

gender stereotiplari bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, gender stereotiplari ta'lim tizimi orqali ham mustahkamlanishi yoki aksincha kamaytirilishi mumkin.[4] Gender identifikatsiyasi va gender tenglik masalalarini o'rganishda Raewyn Connell tadqiqotlari ham alohida ahamiyatga ega. U o'zining "Gender and Power" asarida gender munosabatlari ijtimoiy institutlar, jumladan ta'lim tizimi orqali shakllanishini asoslab beradi. Connellning ta'kidlashicha, ta'lim tizimida gender tenglik tamoyillarini joriy etish ijtimoiy tenglikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.[5] Carol Martin va Diane Ruble tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida bolalarda gender stereotiplari 3–6 yosh davrida faol shakllanishi qayd etilgan va aynan shu davrda pedagogik ta'sir muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. [6]

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ham maktabgacha ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, UNICEF tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida genderni sezgir pedagogik muhit yaratish bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va stereotiplarning kamayishiga xizmat qilishi qayd etilgan. Shuningdek, UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida gender tenglik tamoyillarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish barqaror rivojlanishning muhim omili ekanligi ta'kidlangan. UNESCO ekspertlarining fikriga ko'ra, ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish uchun ham muhim hisoblanadi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish bo'yicha samarali pedagogik modellar ishlab chiqilgan. Masalan, Shvetsiyada genderni sezgir pedagogika konsepsiyasi keng qo'llanilib, bolalarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ta'lim muhiti yaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv bolalarda gender stereotiplarini kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham gender tenglik va ta'lim muammolari turli jihatlarida o'rganilgan. Jumladan, pedagog olim R. Mavlonova o'zining "Pedagogika nazariyasi va tarixi" asarida ta'lim jarayonida shaxsning erkin rivojlanishi va teng imkoniyatlar yaratish muhim pedagogik tamoyil ekanligini ta'kidlaydi.[7] N. Saidahmedov ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali shaxsning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkinligini asoslab bersa, [8] Sh. Sodiqova maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda tenglik va hamkorlik tamoyillarini shakllantirish zarurligini qayd etadi. [9] Bundan tashqari, o'zbek olimlari B. Xodjayev, [10] O. Hasanboyevlar [11] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, demokratik pedagogika va ijtimoiy tenglik tamoyillari keng yoritilgan. Ushbu ilmiy ishlarda zamonaviy ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish pedagogikaning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish bolalarning ijtimoiylashuvi, stereotiplarning kamayishi hamda teng imkoniyatli rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda ta'lim mazmunini takomillashtirish, pedagoglarning gender kompetensiyasini rivojlantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Mazkur tadqiqotni o'rganishda nazariy tahlil (gender pedagogikasi, maktabgacha ta'lim hamda gender tengligi masalalariga oid ilmiy adabiyotlar va xalqaro tadqiqotlarni o'rganish), qiyosiy tahlil (turli mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish tajribalarini taqqoslash) pedagogik tahlil (ta'lim mazmuni va o'quv jarayonida gender yondashuvning aks etishini aniqlash), sistemali yondashuv (maktabgacha ta'lim tizimini kompleks pedagogik tizim sifatida o'rganish) metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Shvetsiya, Islandiya, Buyuk Britaniya hamda xalqaro tashkilotlar (UNICEF, UNESCO) tajribalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni samarali joriy etish

uchun bir qator pedagogik mexanizmlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, Shvetsiya, Islandiya va Buyuk Britaniya tajribalarini tahlil qilish, shuningdek, xalqaro tashkilotlar – UNICEF va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarni o'rganish natijasida gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlar aniqlanib, tizimlashtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim dasturlarida gender tenglik tamoyillari alohida ahamiyatga ega. Masalan, Shvetsiya maktabgacha ta'lim tizimida o'quv materiallari, o'yinlar va tarbiyaviy faoliyatda gender stereotiplarini kamaytirish asosiy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Shvetsiya Ta'lim agentligi tomonidan ishlab chiqilgan Preschool Curriculum (Lpfö 18) dasturida maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda gender stereotiplarining shakllanishiga yo'l qo'ymasligi hamda barcha bolalar uchun teng rivojlanish imkoniyatlarini yaratishi zarurligi qayd etilgan.[12] Shuningdek, Shvetsiyadagi ayrim maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar uchun gender neytral pedagogik muhit yaratish maqsadida gender stereotiplarini aks ettiruvchi o'quv materiallari cheklangan hamda barcha bolalar uchun teng faoliyat turlari taklif etiladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, gender tenglikni ta'minlashda pedagoglarning gender kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun gender tenglikka oid maxsus treninglar tashkil etiladi. Masalan, Early Years Foundation Stage (EYFS) dasturida pedagoglar bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda gender stereotiplaridan xoli pedagogik faoliyat olib borishlari lozimligi qayd etilgan.[13] Shuningdek, UNESCO ekspertlari ham pedagoglarning gender kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlashning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan genderga sezgir pedagogika konsepsiyasi ta'lim tizimining barcha komponentlarini gender tengligi nuqtayi nazaridan tashkil etishni nazarda tutadi. UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarida genderga sezgir pedagogika quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- gender stereotiplaridan xoli o'quv materiallari;
- teng imkoniyatli o'yin faoliyatlari;
- pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik;
- inklyuziv va tenglikka asoslangan ta'lim muhiti.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va gender stereotiplarini kamaytirishga xizmat qiladi.

1-jadval. Xorijiy tajribalar taqqoslama tahlili

Mamlakat/ tashkilot	Gender yondashuvining asosiy xususiyatlari	Amalga mexanizmlari	oshirish	Manba
Shvetsiya	Gender neytral pedagogika, stereotiplarni kamaytirish	Genderga sezgir o'quv materiallari, teng o'yin faoliyatlari		Swedish National Agency for Education, 2018
Islandiya	Hjalli modeli asosida gender tenglik	Bolalarni kichik guruhlarda rivojlantirish, stereotiplarni kamaytirish		Einarsdóttir, 2016
Buyuk Britaniya	Gender tenglikka asoslangan maktabgacha ta'lim siyosati	EYFS dasturi, pedagoglar uchun treninglar		Department for Education, 2021
UNICEF	Genderga sezgir pedagogika konsepsiyasi	O'quv dasturi, boshqaruv va ota-onalar hamkorligini gender nuqtai nazaridan tashkil etish		UNICEF, 2019

UNESCO	Ta'lim tizimida gender tenglik siyosati	Ta'lim siyosati va pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish	UNESCO, 2020
--------	---	---	--------------

MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish nafaqat ta'lim mazmunini boyitishini, balki bolalarning ijtimoiy, psixologik va kommunikativ rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Maktabgacha yosh davri shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi va gender stereotiplari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli aynan ushbu davrda gender tenglik tamoyillariga asoslangan pedagogik muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, gender tenglik tamoyillariga asoslangan ta'lim muhiti bolalarda ijtimoiy tenglik, o'zaro hurmat va hamkorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, Shvetsiya maktabgacha ta'lim tizimida genderni sezgir pedagogika konsepsiyasini joriy etish natijasida bolalarda gender stereotiplarining kamayishi kuzatilgan (Heikkilä, 2015). Tadqiqotlarda qayd etilishicha, gender tenglik tamoyillariga asoslangan pedagogik muhit bolalarda empatiya, o'zaro hurmat va tenglik qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim dasturlarini gender nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish ham muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. UNESCO ekspertlarining ta'kidlashicha, ta'lim dasturlarida gender stereotiplarini aks ettiruvchi elementlarning mavjudligi bolalarning ijtimoiy qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ta'lim mazmunini gender tenglik tamoyillari asosida ishlab chiqish muhim hisoblanadi (UNESCO, 2020). Pedagoglarning gender kompetensiyasini rivojlantirish ham gender yondashuvni samarali joriy etishda muhim omil hisoblanadi. UNICEF tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning genderni sezgir yondashuvni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish ta'lim muassasalarida gender tenglikni ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (UNICEF, 2019). Pedagoglar gender stereotiplarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik metodlarni qo'llash orqali bolalarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Biroq ayrim ilmiy tadqiqotlarda gender yondashuvni joriy etishda muayyan ijtimoiy, madaniy va an'anaviy qarashlar sababli muammolar yuzaga kelishi ham qayd etilgan. Masalan, ayrim jamiyatlarda gender stereotiplari chuqur ildiz otganligi sababli ta'lim tizimida gender tenglikni joriy etish jarayoni murakkab kechishi mumkin (Connell, 2009). Shu sababli gender pedagogikasini rivojlantirish jarayonida har bir mamlakat o'zining milliy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olishi muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender tenglik tamoyillarini maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiya qilish bolalarning ijtimoiy rivojlanishi, teng imkoniyatlar asosida ta'lim olishi hamda kelajakda demokratik qadriyatlarga asoslangan jamiyat shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, bolalarda teng imkoniyatlar yaratish hamda gender stereotiplarining shakllanishini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davri bolalarning shaxsiyati shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, aynan shu davrda ularning ijtimoiy qarashlari, qadriyatlari va gender rollari haqidagi tasavvurlari shakllana boshlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida gender tenglik tamoyillariga asoslangan pedagogik muhit yaratish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida Shvetsiya, Islandiya va Buyuk Britaniya tajribalarini tahlil qilish hamda xalqaro tashkilotlar (UNICEF, UNESCO) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarni o'rganish natijasida maktabgacha ta'lim tizimida gender yondashuvni samarali joriy etishga qaratilgan bir qator ilmiy asoslangan

taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Maktabgacha ta'lim dasturlariga gender tenglik tamoyillarini integratsiya qilish muhim hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv dasturlarida gender stereotiplaridan xoli ta'lim mazmunini shakllantirish bolalarning teng imkoniyatlar asosida rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida barcha bolalar uchun bir xil faoliyat turlarini tashkil etish, o'yin va mashg'ulotlarda genderga xos stereotiplardan qochish bolalarda tenglik tamoyillarini shakllantirishga yordam beradi.

2. Pedagoglarning gender kompetensiyasini rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning genderga sezgir pedagogik metodlarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalari ta'lim jarayonida gender tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun gender pedagogikasi bo'yicha maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

3. O'quv va tarbiyaviy materiallarni gender stereotiplaridan xoli holda ishlab chiqish zarur. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalar uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalari, didaktik materiallar va o'yin vositalari gender stereotiplarini mustahkamlashi yoki aksincha kamaytirishi mumkin. Shu sababli ta'lim materiallarini ishlab chiqishda gender tenglik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali gender madaniyatini rivojlantirish zarur. Bolalarning gender qarashlari faqat ta'lim muassasalarida emas, balki oilaviy muhitda ham shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ota-onalar uchun gender tenglik masalalariga bag'ishlangan ma'rifiy tadbirlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 134-b.
2. Mandela N. Address at the Launch of the Mindset Network. Johannesburg, South Africa, 16 July 2003.
3. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015. – 14-b.
4. Bem S. The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. Yale University Press, 1993.
5. Connell R. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. Stanford University Press, 1987.
6. Martin C., Ruble D. Children's Search for Gender Cues: Cognitive Perspectives on Gender Development. Current Directions in Psychological Science, 2004.
7. Mavlonova R. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
8. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: Fan, 2012.
9. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2013.
10. Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi. Toshkent: Fan, 2018.
11. Hasanboyeva O. Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
12. M. Gender Equality Work in Preschools and Early Childhood Education. University of Gothenburg, 2015.
13. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Gender Report. Paris: UNESCO Publishing, 2020. UNICEF. Gender Equality in Early Childhood Education. Florence: UNICEF Office of Research, 2019.